

# ROMEN SALATI NAVLARINI TURLI EKISH SXEMALARIDA O‘STIRISHNING TOVAR HOSIL CHIQIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIGIGA TA’SIRI

Ergashev Javoxir Iskandar o‘g‘li, tayanch doktorant

Samarqand davlat universiteti, Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi instituti

ORCID: 0009-0007-3029-1733

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Samarqand viloyatining o‘tloqi bo‘z tuproqlari sharoitida romen salati navlari takroriy ekinida turli ekish sxemalarida ko‘chatidan ekib parvarishlanganda hosildorligi va iqtisodiy samaradorligi haqidagi ma‘lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** romen salati, nav, ekish sxemasi, hosildorlik, hosil tannarxi, sotish bahosi, daromad, sof foyda, iqtisodiy samaradorlik.

**Аннотация.** В статье приведены данные о продуктивности и экономической эффективности сортов салата ромэн, выращиваемых в качестве повторной культуры при различных схемах посадки в условиях лугово-серозёмных почв Самаркандской области.

**Ключевые слова:** салат ромэн, сорт, схема посадки, урожайность, себестоимость продукции, цена реализации, доход, чистая прибыль, экономическая эффективность.

**Abstract.** This article provides information on the yield and economic efficiency of romaine lettuce varieties grown as a secondary crop using different planting schemes in the conditions of meadow gray soils of the Samarkand region.

**Keywords.** Romaine lettuce, variety, planting scheme, yield, production cost, selling price, income, net profit, economic efficiency.


**Kirish.** Bugungi kunda aholini oziq-ovqat ratsionini yaxshilash va sifatli mahsulotlar bilan boyitish maqsadida sabzavotlar turini kengaytirish, yangi tur xillarni asosiy va takroriy ekin sifatida yetishtirish hisobiga mavsumiylikni bartaraf qilishga katta e‘tibor qaratilmoqda[1]. Sabzavotlar biokimyoviy tarkibining xususiyati shundan iboratki, ular tarkibida suv ko‘p (65 - 96 %), oziq moddalar (oqsil, moy, uglevodlar) esa kam. Bundan tashqari ularning kaloriyasi ham yuqori emas. Lekin, odam organizmi uchun zarur bo‘lgan biologik aktiv moddalar, vitaminlar, fermentlar, mineral tuzlarga g‘oyat boy hisoblanadi[2]. Sabzavot ekinlari orasida salat ekining turlariga ayniqsa romen salatiga ehtiyoj keskin ortib bormoqda, chunki salat qimmatbaho shifobaxsh va parhez xususiyatlariga ega bo‘lgan ko‘kat sabzavotidir. Salat tarkibida provitamin A-karotin, S, B, B<sub>2</sub>, P, PP, K, E vitaminlari va temir, mis, marganes, rux, bor, yod, kobalt kabi turli elementlari uchraydi[4, 5]. Shuningdek, sabzavotlarning yangi navlarini yaratish, tur xillarni xorijdan intraduksiya qilish, ulardan yuqori va sifatli hosil yetishtirish bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilishi negizida dunyoda oziq-ovqat yetishtirish va import qilish salmog‘i yildan yilga oshib bormoqda[3]. Bu esa bugungi kunda dunyoda global iqlim o‘zgarishi yuz berayotgan bir davrda aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qodirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirib borish muhim ahamiyatga egadir.

**Materiallar va uslublar.** Samarqand viloyati sharoitida takroriy ekinida romen salatining Sladkiy xrust, Aktina va Batsio navlari 4 ta ekish sxemasida (60x10, 60x15, 60x20(nazorat), 60x25) ekib yetishtirishning iqtisodiy jihatdan samaradorlik ko‘rsatkichlari umumqabul qilingan uslublar asosida hisoblandi. Bunda O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan tasdiqlangan me‘yoriy hujjatlar asos qilib olindi. Shuningdek, ilmiy tajriba olib borilgan fermer xo‘jaligining ma‘lumotlaridan foydalanildi. Romen salati navlarini maqbul

ekish sxemalarida yetishtirishning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini hisoblashda bir gektardan olingan romen salati hosildorligi, yetishtirishga qilingan jami xarajatlar, hosil tannarxi, salatboshni sotish bahosi, bir gektardan olingan umumiy daromad va sof foyda hamda rentabellik darajasi aniqlandi.

**Natijalar va munozara.** Tadqiqotlarimiz doirasida o‘tkazilgan tajribalar Samarqand viloyati o‘tloqi bo‘z tuproqlar sharoitida olib borildi. Tajribalarimizda o‘rganilgan romen salati navlari hosildorligi ekish sxemasiga bog‘liq holda 21,3 tonnadan 31,9 tonnagacha ortib bordi. Eng yuqori hosildorlik romen salati navlari 60x15 sm sxemada ekilganda qayd etilib, hosildorlik ko‘rsatkichlari Sladkiy xrust navida 28,8 t/ga nazorat variantga nisbatan 5,9 t/ga, Aktina navida 29,9 t/ga nazorat variantga nisbatan 7,7 t/ga, Batsio navida esa 31,9 t/ga nazoratga nisbatan 8,8 t/ga yuqori bo‘ldi. Romen salati navlarining hosildorligi bo‘yicha eng past natija ko‘chatlar 60x25 sm sxemada ekilganda qayd etilib o‘rtacha 21,3-23,1 t/ga dan iborat bo‘ldi. Mahsulot tan narxini arzonlashishida va maydon birligidan eng yuqori sof foyda va eng baland rentabellik darajasiga erishishda tovarbop hosil chiqimi eng muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois tadqiqotlarimizda romen salati navlarining tovar hosil chiqimi ham hisoblandi, bunda eng ko‘p tovar hosil chiqimi ko‘chatlar 60x15 sm sxemada ekilganda qayd etildi. Shuningdek, Sladkiy xrust navida 26,9 t/ga (93,4 %), Aktina navida 28,1 t/ga (94,1 %), Batsio navida esa 30,2 t/ga (94,8 %) dan iborat bo‘ldi.

Romen salati navlarini turli ekish sxemalarida ekib salatbosh yetishtirish uchun umumiy xarajatlar tahlilini ko‘rsatishicha Sladkiy xrust navida bir gektarga qilingan xarajatlar 35870,0-42780,0 ming so‘m, bir kg salatbosh tannarxi 1506,0-1878,0 so‘m, umumiy hosil qiymati 65895,0-92805,0 ming so‘m, sof daromad 30025,0-52-293,0 ming so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, romen salatining Aktina navini etishtirishda ekish sxemasiga bog‘liq 36102,0-43580,0 ming so‘m; 1476,6-1796,1 so‘m; 69345,0-



1-rasm. Romen salati navlarini turli ekish sxemalarida ekib yetishtirishni rentabellik darajasiga ta'siri, % (2023-2025 yy.)

96945,0 ming so'm va 33243,0-55450,0 ming so'mni, Batsio navida esa ushbu ko'rsatkichlar tegishli 37214,0-44589,0 ming so'm; 1431,6-1789,1 so'm; 71760,0-104190,0 ming so'm hamda 34546,0-60953,0 ming so'mdan iborat bo'ldi.

Romen salatini takroriy ekinida turli ekish sxemalarida ekib o'stirish ekish sxemasiga bog'liq holda Sladkiy xrust navida 83,7-129,1 %, Aktina navida 92,1-133,6 %, Batsio navida 92,8-140,9

% rentabellik darajasini ta'minladi.

**Xulosa.** Samarqand viloyatining o'tloqi bo'z tuproqlari sharoitida romen salatining Sladkiy xrust, Aktina va Batsio navlari takroriy ekin sifatida 60x15 sm sxemada ekib yetishtirish gektaridan eng yuqori daromad (92805,0-104190,0 ming so'm) va eng ko'p sof foyda (52239,0-60953,0 ming so'm) olishni ta'minlab, eng yuqori rentabellik (129,1-140,9 %) darajasiga erishildi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Nizomov R.A va boshqalar. Sabzavot yetishtirish. T. 2023. - B.150-151.
2. Ostonaqulov T.E., Zuev V.I., Qodirxo'jaev O.Q. Mevachilik va sabzavotchilik (Sabzavotchilik). Darslik. – T.: 2018. - B. 507-508.
3. Рахматов И.И., Санаев С.Т. Влияние срока исхемы посадки на рост, развитие и урожайность сахарной кукурузы. // Журнал «Актуальные проблемы современной науки» - Москва, 2023 - №3 (132). –С. 49–51.
4. Turdieva F.T. Andijon viloyati sharoitida bargli salat navlarini tanlash va etishtirish texnologiyasini ishlab chiqish. Q.x.f.f.d. (PhD) dissertatsiya avtoreferati. T.: 2023. - B. 4.
5. Ergashev J.I. Turli ekish sxemalarining romen salati navlarining mahsuldorligi va hosildorligiga ta'siri. O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi. №6. 2025. –B.46-48.